

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XASANOV SHOXJAXON G‘OLIBJON O‘G‘LI

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOLLABORATIV YONDASHUV
ASOSIDA PEDAGOGIK INTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xasanov Shoxjaxon G‘olibjon o‘g‘li

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik
intensiylarini rivojlantirish metodikasi..... 3

Хасанов Шохжахон Голибжон угли

Методика развития педагогических интенций будущих учителей на
основе коллаборативного подхода..... 25

Shokhjakhon G. Khasanov

Methodology of developing pedagogical intentions of future teachers based on
a collaborative approach..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XASANOV SHOXJAXON G‘OLIBJON O‘G‘LI

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOLLABORATIV YONDASHUV
ASOSIDA PEDAGOGIK INTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2024

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped5598 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz.) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Temirov Nabijon Soliyevich.
pedagogika fanlari doktori, professor

Xalikov A'zam Abdusalomovich.
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02, e-mail: fardu_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "____" _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

B.Sh.Shermuhammadov

ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.f.d., professor

T.Y.Bakirov

ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, p.f.f.d. (PhD), dotsent

N.I.Toirova

ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
rais o'rinbosari, f.f.f.d. (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda pedagoglar tayyorlash jarayonlarining ta'limiy maqsadga erishish metodikasini takomillashtirishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga, pedagoglar tayyorlashda yangicha yondashuvlardan foydalanish, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi yo'nalishlarni zamonaviylashtirish, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kollaborativ yondashuv imkoniyatlaridan foydalanish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ pedagogik intensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini yaratish bo'yicha amaliy loyihalar tizimli ravishda bajarilmoqda.

Jahonning ilg'or ilmiy-tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, pedagogik jarayonni oqilona modellashtirish, bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish, pedagogning mashg'ulot rejasini tuzish, ta'lim berish metodikalarini tanlash, talabalarni motivatsiyalash, ularning bilimlarini nazorat qilish, baholash hamda ta'lim jarayonini refleksiya qilishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. O'qituvchi va talabani ta'lim jarayonida maqsadli ravishda amalga oshiriladigan didaktik faoliyat samaradorligiga erishishning metodik imkoniyatlarini muntazam takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida ham "pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash"¹ ustuvor etib belgilangan. Bu esa pedagogik tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirish, kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirish orqali ularning fanlarni chuqur o'zlashtirish ko'nikmalarini, birgalikda ishlash va kreativ fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264-son "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

¹2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4545884>

oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ o'qitish va hamkorlikdagi o'quv faoliyatini takomillashtirishda yangicha yondashuvdagi pedagogik tadqiqot ishlari Sh.Abdullayeva, N.Dilova, B.Xodjayev, B.Qurbonova, B.O'tanov, X.Umarov, N.Azimov, Q.Inaqov, R.Zamilova² va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlarida kollaborativ o'qitish metodikalarini takomillashtirga oid ilmiy ishlar O.A.Abdulina, A.A.Irincheyev, G.Bektasova, R.D.Gadjiyev, Y.V.Korobeynikova, P.V.Paydukov, L.N.Konstantinova, M.A.Larionova, N.N.Darenkova, M.K.Duvanskaya, N.Y.Grishina, Y.M.Sartakova, A.A.Kiverlyag, T.Z.Pashtov, Y.K.Babanskiy, V.Dyachenko, V.V.Davidov³ va boshq. tomonidan olib borilgan.

² Абдуллаева Ш.А. Хамкорлик педагогикаси. – Т.: Фан ва технология, 2017; Дилова Н.Ф. Бошланғич таълимда ўзаро хамкорлик мухитини шакллантириш механизмларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Нукус, 2018; Ходжаев Б. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш. Автореф. пед.ф.док. ... Тошкент, 2016. -82б; Qurbonova B.Q. Hamkorlik pedagogikasi asosida talabalarni ijtimoiylashtirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc). ... diss. – Toshkent, 2023. - 209b; Ўтанов Б. Ўқитувчи ва талабанинг хамкорликдаги фаолияти ўқитиш самарадорлигини оширишнинг муҳим омили сифатида. Диссер. Пед.ф.н. ... Тошкент, 1992. Умаров Х.А. Инновацион хамкорлик асосида талабаларнинг касбий педагогик тайёргарлигини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. ... дисс. – Тошкент, 2021; Азимов Н. Ш. Ўқитувчи билан талабалар хамкорлик фаолиятининг динамикаси. Автореф. пед.ф.ном. ... Тошкент, 1995. – 61б; Инақов Қ.Қ. Хамкорлик педагогикаси асосида таълим-тарбия сифатини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Наманган: 2019; Замилова Р.Р. Бадий-тарихий адабиётлар воситасида бўлажак тарих ўқитувчиларида тарихий тафаккурни шакллантириш технологиясини такомиллаштириш. Автореф. пед.ф.док. ... Наманган, 2022.-70б;

³ Абдулина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования - М.: Просвещение, 1990. – 141 с. 2. Абдулина О.А. Демократизация общества и подготовка...специалистов: проблемы и поиски//Высшее образование в России. – 1996, №1. С. 73-78. 4. Иринчеев А.А. Развитие профессиональной компетентности будущих учителей. Дисс. ...канд. пед. наук. – Улан-Удэ. Бектасова Г.К. Кollaborативная среда как эффективная форма организации урока в условиях повышения качества образования и воспитания/ Г.К. Бектасова. Текст: непосредственный // Педагогическое мастерство: материалы VIII Междунар. науч. конф. М.: Буки-Веди, 2016. – С. 3-4.; 2012; Гаджиев Р.Д. Формирование технологической компетенции будущего учителя. Дисс. ...канд. пед. наук. – Махачкала. 2012; Коробейникова Е.В. Квалиметрическая подготовка будущих учителей. Дисс. ...канд. пед. наук. – Челябинск. Методы обучения в современной общеобразовательной школе / Ю. К. Бабанский. - Москва : Просвещение, 1985. – 208 с.; 22 см.; ISBN В пер. (В пер.) : 70 к.; Дьяченко В.К. «Сотрудничество в обучении. О коллективном способе учебной работы». М.: Наука, 1991. – С. 24-57.; Давыдов В.В. Концепция гуманизации российского начального образования (необходимость и возможность создания целостной системы развивающего начального

Jan Piaget, Robert Marzano, Linda Darling-Hammond, Benjamin Blum, Dylan Wiliam, Robert Ganye, Lev Vygotsky⁴ va boshq. hamkorlikda o'qitishning samarali usullari, kasbiy mahoratni oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan.

Yuqorida tilga olingan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida hamkorlikdagi faoliyatning samaradorligi va o'qitishning avfzalliklari keltirilgan.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetida amalga oshirilgan PZ-20170930223 "Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2018-2020 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni o'qitishda pedagogik intensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish va pedagogik intensiyalarini rivojlantirishning pragmatik, tizimli-funksional modelini takomillashtirish;

kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni o'qitishda pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirish jarayonini kollaborativ yondashuv asosida takomillashtirish samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obykti. Bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish

образования) // Психологическая наука и образование. 2000. Том 5. № 2. 2007. Пайдуков П.В. Формирование профессиональной компетентности у будущих учителей изобразительного искусства в процессе предметной подготовки. Дисс. ...канд. пед. наук. – Чебоксары. 2013. Константинова Л.Н. педагогические условия развития ориентации будущего учителя на взаимодействие «Учитель-родители». Дисс. ...канд. пед. наук. – Оренбург. 1999. Ларионова М.А. Формирование профессиональной самооценки будущих учителей в процессе внеучебной творческой деятельности. Дисс. ...канд. пед. наук. – Москва. 1999. Даренькова Н.Н. Адаптация студентов первого курса к обучению в техническом вузе в условиях информатизации образования. Дисс. ...канд. пед. наук. – Нижний Новгород. 2015. Дуванская М.К. Учебная активность в структуре интегральной индивидуальности студентов в связи со специализацией и этапами обучения. Дисс. ...канд. пед. наук. – Курск, 2017; Гришина Н.Ю. Организационно-педагогические условия развития успешности студентов в учебной деятельности. Дисс. ...канд. пед. наук. – Ульяновск, 2006; Сартакова Е.М. Формирование социально-личностных компетенций студентов вузов. Дисс. ...канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2009; Кыверляг А.А. Методы исследования в профессиональной педагогике Текст. /Таллин.: Валгус, 1980. – 334 с.; Сартакова Е.М. Организация групповой учебно-познавательной деятельности студентов как фактор повышения эффективности профессионально-педагогической подготовки будущего учителя. Дисс. ...канд. пед. наук. – Пенза, 2001; Паштов Т.З. Психолого-педагогические условия саморазвития студентов-будущих учителей в системе университетского образования. Дисс. ...канд. пед. наук. – Владикавказ, 2007.

⁴ Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press; Marzano, R. J. (2007). The Art and Science of Teaching: A Comprehensive Framework for Effective Instruction. ASCD; Darling-Hammond, L. (2006). Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. Jossey-Bass; Bloom B.S. (ed) et al. A taxonomy of Educational objectives: Handbook 1: The Cognitive Domain. Harvow, 1956. Cobb C.W; Cobb C.W., Douglas P.H. A theory of production. – American Economic Review, 1928, v.18. – № 1.; Wiliam, D. (2011). Embedded Formative Assessment. Solution Tree Press; Gagné, R. M. (1985). The Conditions of Learning and Theory of Instruction. Holt, Rinehart & Winston; Vygotsky L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

jarayoni bo‘lib. Tajriba-sinov ishlari Farg‘ona davlat universiteti, Urganch davlat pedagogika instituti va Termiz davlat universitetida o‘tkazilgan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lajak o‘qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish jarayonining shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish; sotsiologik-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa); pedagogik tajriba-sinov; natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kollaborativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ilmiy maqsadlarda qo‘llash, ma’nolarni bilish qobiliyati, ta’limiy va tarbiyaviy intensiyalarni o‘zlashtirish hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni halollik, adolat, hurmat kabi axloqiy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish asosida aniqlangan;

bo‘lajak o‘qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida o‘qitish va pedagogik intensiyalarni rivojlantirishning pragmatik, tizimli-funksional modeli pedagogik intensiyalarni boshqarish, maqsadlarni aniqlash, o‘quv materialini strukturalashtirish hamda intensiyalarning ta’limiy, tarbiyaviy, motivatsion, innovatsion komponentlarini refleksiyalash, fanlararo integrativ yondashuvlarni izchillikda bir-biriga bog‘liq tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan;

kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarni rivojlantirish metodikasi interaktiv mashg‘ulotlar, onlayn testlar, virtual o‘quv muhitini uyg‘unlashtirish, ta’lim intensiyalarini tarmoqlash hamda o‘quv harakatlari ta’sirchanligini kompleks oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni mustaqil, kreativ fikrlashga yo‘llash va hayotiy tajribalarini rivojlantiradigan imkoniyatlar yaratish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirish jarayonini kollaborativ yondashuv texnologiyasi asosida takomillashtirish, pedagogik intensiyalarni o‘zlashtirish, o‘quv materiallariga ijobiy munosabatini muqobil shakllantirish, yangi g‘oyalar yaratish, shaxsiy maqsadlar va manfaatlar birligini bosqichma-bosqich ta’minlash hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni rejalashtirish asosida takomillashtirilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalari rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari aniqlangan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarining pedagogik intensiyalarini rivojlantirishda “Ijtimoiy pedagogika”, “Oila pedagogikasi” va “Hamkorlik pedagogikasi” fanlarini o‘qitish jarayonida fan mavzulariga oid kollaborativ yondashuv asosidagi metodlar tizimli integratsiya qilingan.

“Hamkorlik pedagogikasi” nomli darslik nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqot ishlariga tayanilganligi, foydalangan yondashuvlar, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan

tahlillar, tajriba-sinov ishlari natijalarning matematik-statistik metodlar yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda erishilgan ilmiy natijalardan pedagogik tadqiqotlarga doir izlanishlarda foydalanish mumkin. Tadqiq etilayotgan masalaning keyinchalik yanada chuqurroq o'rganilishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatga ega bo'lib, pedagogika, psixologiya, ta'lim va tarbiya nazariyasiga doir ilmiy tadqiqotlar uchun ham material bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan g'oyalar, nazariy qarash va amaliy tavsiyalar, monografiya va o'quv qo'llanmalar yaratishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda manba bo'la oladi. Ishda to'plangan materiallardan oliy o'quv yurtlarining pedagogika-psixologiya fakultetida "Pedagogika", "Pedagogika nazariyasi" "Umumiy pedagogika", "Pedagogik mahorat", "Kreativ pedagogika", "Hamkorlik pedagogikasi" kabi fanlardan ma'ruza matnlari tuzishda, oliy ta'lim muassasalarida fan dasturlari, o'quv dasturlari tayyorlashda foydalanish mumkin.

"Hamkorlik pedagogikasi" nomli darslikdan mashg'ulotlarni kollaborativ yondashuv asosida olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini ilmiy maqsadlarda qo'llash, ma'nolarni bilish qobiliyati, ta'limiy va tarbiyaviy intensiyalarni o'zlashtirish hamda ijtimoiy ko'nikmalarni halollik, adolat, hurmat kabi axloqiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilganiga oid tavsiyalar O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170913120 raqamli "Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari" mavzusidagi amaliy loyahasini bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 29-iyuldagi 11-05-3871/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, o'quv jarayonida ta'lim berish metodikalarini tanlash, talabalarni motivatsiyalash, ularning bilimlarini nazorat qilish, baholash va ta'lim jarayonini refleksiya qilish imkoniyatlari kengaytirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida o'qitish va pedagogik intensiyalarni rivojlantirishning pragmatik, tizimli-funksional modelini pedagogik intensiyalarni boshqarish, maqsadlarni aniqlash, o'quv materialini strukturalashtirish hamda intensiyalarning ta'limiy, tarbiyaviy, motivatsion, innovatsion komponentlarini refleksiyalash fanlararo integrativ yondashuvlarni izchillikda bir-biriga bog'liq tizimlashtirish asosida takomillashtirilganiga oid metodik tavsiyalar O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 29-iyuldagi 11-05-3871/04-sonli dalolatnomasi).. Natijada,

kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalardan foydalanish samarodirligi oshishiga xizmat qilgan;

kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarni rivojlantirish metodini interaktiv mashg'ulotlar, onlayn testlar, virtual o'quv muhitini uyg'unlashtirish, ta'lim intensiyalarini tarmoqlash hamda o'quv harakatlari ta'sirchanligini kompleks oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni mustaqil, kreativ fikrlashga yo'llash va hayotiy tajribalarini rivojlantiradigan imkoniyatlar yaratish asosida takomillashtirilganiga oid tavsiyalar "Hamkorlik pedagogikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 29-iyuldagi 11-05-3871/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik intensiyalarni kollaborativ yondashuv asosida rivojlantirishni metodik qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirish jarayonini kollaborativ yondashuv texnologiyasi asosida takomillashtirish, pedagogik intensiyalarni o'zlashtirish, o'quv materiallariga ijobiy munosabatini muqobil shakllantirish, yangi g'oyalar yaratish, shaxsiy maqsadlar va manfaatlar birligini bosqichma-bosqich ta'minlash hamda ijtimoiy ko'nikmalarni rejalashtirish asosida takomillashtirilganiga oid tavsiyalar "Hamkorlik pedagogikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 29-iyuldagi 11-05-3871/04-sonli dalolatnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shulardan 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertasiyaning umumiy hajmi 117 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan; muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi yoritilgan; obykti, predmeti, metodlari, maqsad va vazifalari aniqlangan; shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarni rivojlantirish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasining mazmuni, ustuvor yo'nalishlari, pedagogik asoslari, ulardan foydalanish imkoniyatlari hamda pedagogik intensiyalarni rivojlantirishga doir horijiy tajribalar tadqiq etilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirish va kollaborativ yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish masalalari dolzarb ta'limiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish jarayonida ularning pedagogik faoliyatini tashkil etuvchi metodik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun pedagogika fani doirasidagi metodik malakalar, ayniqsa, kollaborativ yondashuv asosida o'qitishga tayyorlash jarayoniga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek tilining izohli lug'atida hamkor so'zi "Hamkor – forscha "همکار" ish faoliyatida hamkor bo'lish, ayni bir ishda birgalashish, uni teng bajarish"⁵ deb izohlanadi.

Pedagogikada kollaboratsiya – umumiy maqsadlar yo'lida birgalikda hamkorlik qilish, tajriba almashish, o'rganish, maslahatlashishni anglatadi. Bunda pedagogik jarayon ishtirokchilari keng qamrovli hamkorlik jarayonlari obykti hisoblanadi. Keng ma'noda kollaboratsiya jarayonlari ta'lim tashkilotidagi muammoni hal qilish, vazifani bajarish yoki qo'yilgan ta'limiy maqsadga erishish uchun jamoaviy ishlarni tashkil qilish imkonini beradigan pedagogik strategiyani anglatadi.

Intensiya so'zi (lot. – istak) – insonning obyektlar va hodisalarni bilishga bo'lgan tug'ma istagi, odamning ongini, ma'nolarni bilishga yo'naltirish qobiliyati⁶ degan ma'noni ifodalaydi.

XIX asrda fanga "Intensiya" tushunchasi Frans Brentano tomonidan "Intensiyaviylik"⁷ konsepsiyasi bilan birga kiritilgan, uning konsepsiyasi insonning ma'lum predmetga nisbatan ongli ravishda yo'nalgani bilan tavsiflangan.

Pedagogik intensiya (pedagogical intention) – o'qituvchi va talabaning o'quv jarayonidagi maqsadlari va niyatlariga qaratilgan tadqiqot faoliyat turi hisoblanadi. Pedagogik intensiya – bu o'qituvchi va talabaning ta'lim jarayonida maqsadli ravishda amalga oshiriladigan didaktik va pedagogik faoliyatidir. Bu tushuncha o'z ichiga o'qituvchining mashg'ulot rejasini tuzishdan tortib, ta'lim berish metodikalarini tanlash, talabalarni motivatsiyalash, ularning bilimlarini nazorat qilish va baholash hamda ta'lim jarayonini refleksiya qilish kabi qadamlarni qamrab oladi.

Pedagogik intensiyalar Li Shulman tomonidan o'rganilgan. Li Shulman o'qituvchilarning mukammal bilim bazasini talab qiladigan "pedagogical content knowledge" (PCK) konsepsiyasini ishlab chiqib, "o'qituvchi o'z bilimlarini talabalarga yetkazib berishda talabalarning berilgan ma'lumotlarni oson o'zlashtirishi uchun zarur bo'lgan pedagogik ko'nikma va tushunchalarga ham ega bo'lishi kerakligi haqida pedagogik talabni qo'yadi. Ushbu pedagogik ko'nikmani u "pedagogik bilim kontenti" deb atagan⁸.

Tadqiqot ishida bo'lajak o'qituvchiga xos pedagogik intensiyalar aniqlandi. Pedagogikada intensiyalar ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining oldiga qo'ygan maqsadlari va intilishlarini ifoda etadi. Bular:

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – B. 35

⁶ Безрукова В.С. Основы духовной культуры (энциклопедический словарь педагога). – Екатеринбург. 2000. – С. 937.

⁷ Brentano Ф. Избранные работы. –М.: Дом интеллектуальной книги, Русское феноменологическое общество, 1996. – 176 с.

⁸ Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 15(2), –P. 4-14

ta'limiy intensiyalar talabalarga ma'lum bir bilim va ko'nikmalarni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, talabalarning mavzuga oid nazariy bilimlarni oson o'zlashtirishini anglatadi;

tarbiyaviy intensiyalar talabalarda muayyan axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ularning shaxs sifatida kamol topishi, jamiyatda faol va amas'uliyatli a'zo bo'lib yetishishiga ko'maklashadi, ya'ni talabalarda halollik, adolat, hurmat, mas'uliyat hamda mehr-muhabbat kabi axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashga yo'g'rilgan;

motivatsion intensiyalar talabalarning ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning faol ishtirokini ta'minlash va o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularning o'quv materiallariga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan;

muloqot intensiyalari talabalar bilan samarali aloqa o'rnatish va ularning fikr-mulohazalarini eshitishga qaratilgan bo'lib, o'quv jarayonida ikki tomonlama muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi;

diagnostik intensiyalar talabalarning bilimini va ko'nikmalarini baholashga hamda ularning kamchiliklarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayonidagi samaradorlikni oshirish va individual yondashuvni ta'minlashga yordam beradi;

innovatsion intensiyalar o'quv jarayonida yangi va samarali usullar, texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan bo'lib, ta'lim sifati va talabalarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi;

ijodiy intensiyalar talabalarda ijodiy fikrlash va yaratuvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning yangi g'oyalar yaratish va muammolarga innovatsion yondashuvlarni topish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan pedagogik intensiyalarni rivojlantirish uchun ustuvor bo'lgan jihatlar aniqlandi. Bular:

maqsadlarni aniqlash: har bir mashg'ulot va o'quv moduli uchun aniq va real maqsadlarni belgilab, talabalarga nima o'rganishlari kerakligi, nima uchun bu muhimligi va ular buni qanday qilib bajarishlarini aniqlashga yordam beradi;

motivlashtirish: o'quv faoliyatiga qiziqishni oshirish. Talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilish uchun ularning qiziqishlariga mos yondashuvni aniqlash muhim. Talabalarga ularning shaxsiy maqsad va manfaatlarini bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni taklif qilish, ularni o'qishga rag'batlantiradi;

o'quv materialini strukturalashtirish: mashg'ulot rejalari va o'quv materiallarini maqsadga muvofiq tartibga solish. Har bir topshiriq yoki faoliyat maqsadini aniq ko'rsatib, talabalarga natijadorlikni tushuntirish;

refleksiya va to'g'ri baholash: bo'lajak o'qituvchilarda harakat va natijaga nisbatan xulosa chiqarish, shuningdek, talabalarga o'zlarining o'qish jarayonini tahlil qilish va baholash imkoniyatini yaratish. Mashg'ulot yoki modul oxirida maqsadlar qay darajada amalga oshirilganini tahlil etish, qaysi yo'nalishlarda takomillashtirish kerakligini aniqlashga yordam beradi;

kollaboratsiya: talabalarni jamoaviy ishlashga jalb qilib, umumiy maqsadlarga erishishga qaratilgan topshiriq va faoliyatlarni tashkil etish. Bu bo'lajak

o'qituvchilarning hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quv jarayonini faollashtiradi;

pedagogik texnologiyadan oqilona foydalanish: zamonaviy pedagogik ta'lim texnologiyalari yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, interaktiv mashg'ulotlar, onlayn testlar va virtual o'quv muhitlari o'quv jarayonini samarali va qiziqarli bo'lishiga olib keladi.

Pedagogik intensiya ta'lim qatnashchilarining xususiyati va ta'lim faoliyatidagi vazifasiga qarab tarmoqlanadi, ya'ni o'qituvchi va talabalar o'zlarining shaxsiy intensiyalarga egadirlar. Bular:

O'qituvchining intensiyalari: o'qituvchi ta'lim berish jarayonida ma'lum bir maqsadlarga erishishni niyat qiladi. Masalan, talabalarni ma'lum bir fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va hokazo. Bu intensiyalar o'qituvchining ta'lim metodikasi, o'quv materiallarini tanlash va mashg'ulot jarayonini rejalashtirishni belgilaydi. Pedagogika intensiyalar ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadlari va intilishlarini ifoda etadi;

Talabalarning intensiyalari: talabalarning ta'lim olishdagi shaxsiy maqsadlarini ifodalaydi. Har bir talaba o'zini qiziqtiradigan sohada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni xohlaydi.

Dissertatsiyada kollaborativ o'qitish va pedagogik intensiya atamalariga quyidagicha ta'rif keltiriladi:

Kollaborativ o'qitish – o'qituvchi hamda ikki va undan ortiq talabaning, birgalikdagi ma'lum maqsad va manfaat yo'lidagi o'qitish faoliyati hisoblanadi.

Pedagogik intensiya – o'qituvchi va talabaning ta'lim jarayonida maqsadli ravishda amalga oshiradigan didaktik va pedagogik faoliyatidir. Bu tushuncha o'qituvchining mashg'ulot rejasini tuzishdan tortib, ta'lim berish metodikalarini tanlash, talabalarni motivatsiyalash, ularning bilimlarini nazorat qilish, baholash hamda ta'lim jarayonini refleksiyalashni anglatadi.

Kollaborativ o'qitish talabalarni samarali o'rganishini ta'minlash uchun bir necha o'qituvchilar yoki mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan bir qator metod va tajribalar majmui ekani, shuningdek, pedagogikada intensiyadan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va talabalarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi, intensiyaning turli jihatlari hamda ularning pedagogikada turli maqsadlarda qo'llanishi pedagogik asoslandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirishning metodik ta'minoti”** deb nomlanadi. Mazkur bobda bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasining vazifalari, metodlari va pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosidagi pedagogik intensiyalarini rivojlantirish uchun o'quv jarayonidagi: intensiyaviy, fundamental-nazariy, maqsadlarni belgilash, tahlil qilish, tadqiqotchilik, amaliy, tajriba almashish va resurslardan foydalanish vazifalari belgilandi. Belgilangan vazifalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini

rivojlantirish modeli takomillashtirildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modelida pedagogik intensiyalarga ta’sir ko‘rsatuvchi kollaborativ yondashuvga asoslangan quyidagi ta’lim metodlari tavsiya etilgan: “Axborot almashish usuli”, “Qiziqarli rollar usuli”, “Hamkorlikda muammolarni hal qilish usuli”, “Hamkorlikda o‘zaro o‘rganish usuli”, “Liderlikni yuzaga chiqarish usuli”, “Raqobatni tashkillashtirish usuli”, “Dual usul”, “Dialogik usul”, “Liberalashtirilgan mashg‘ulot” va “Innovatsiyalar mashg‘uloti” kabi metodlarning barchasini o‘qitiladigan bir mutaxassislik fani doirasidagi bir mashg‘ulot davomiyligi bo‘yicha qo‘llash mumkin. Yuqorida keltirilgan metodlarning asosiy g‘oyasi o‘quv jarayonida vazifalarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qish va o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot ishida “Ijtimoiy pedagogika”, “Oila pedagogikasi” va “Hamkorlik pedagogikasi” fanlari bo‘yicha tavsiya etilgan metodik majmua tarkibidagi metodlar fan dasturi doirasidagi mavzuiy xususiyati va ta’sir doirasiga ko‘ra integratsiyasi mavzulashtirilgan. Shuningdek, ushbu fanlarning mazmuni, mohiyati, tarixi, huquqiy asoslari, vazifalari, shakllari, vositalari va pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, kollaborativ o‘qitish asosida mavzulashtirilgan metodlari, pedagogik intensiyalarni rivojlantiruvchi jihatlari hamda tavsiya etiladigan kollaborativ yondashuv asosidagi metodik tavsiyalarimiz, metodik va pedagogik jihatdan tadqiqotning yondashuv uslubi va fanning xususiyati bir-biriga nisbatan mutanosiblik kasb etishi aniqlangan.

Tadqiqot jarayonida kollaborativ yondashuv asosida o‘qitishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar va o‘tkazilgan anketa va so‘rovnomalar asosida, yuqorida keltirilgan metodlarning bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intensiyalariga qay darajada ta’sir ko‘rsatishi haqidagi dinamik jadval ishlab chiqildi. O‘qitiladigan bitta mutaxassislik fani doirasidagi mashg‘ulot davomiyligi bo‘yicha metodik tavsiyalarni bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intensiyalariga ta’sir ko‘rsatish doirasiga nisbatan 3 guruhga bo‘lish tavsiya qilinadi:

1. Pedagogik intensiyalarga quyi darajada ta’sir etuvchi metodlar (●).
2. Pedagogik intensiyalarga o‘rta darajada ta’sir etuvchi metodlar (●●).
3. Pedagogik intensiyalarga yuqori darajada ta’sir etuvchi metodlar (●●●).

1-jadval


Metodlarning pedagogik intensiyalarga ta’sir ko‘rsatish darajasi

Intensiya Metodlar	Ta’limiy	Tarbiyaviy	Motivatsion	Muloqot	Diagnostik	Innovatsion	Ijodiy
Axborot almashish	●●	●●	●●	●●●	●●	●●●	●●●
Qiziqarli rollar	●●	●●	●●●	●●	●●	●●●	●●●
Hamkorlikda muammolarni hal qilish	●●	●●	●●	●●●	●●●	●●●	●●
Hamkorlikda o‘zaro o‘rganish	●●●	●●●	●●●	●●	●●	●●●	●●

Liderlik	••	••	•••	••	••	•••	•••
Raqobat	•••	••	••	•	•••	••	•••
Dual	•••	•••	••	•••	•	••	••
Dialogik	••	•••	••	•••	••	•	•••
Liberal	•••	••	•••	•••	••	••	••
Innovatsiyalar darsi	•••	••	••	••	••	•••	•••

Tadqiqot doirasida pragmatik, tizimli-funksional model takomillashtirildi. Modelning mazkur turi bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intensiyalarini kollaborativ yondashuv asosida rivojlantirish jarayonini boshqarish vositalarini izlab topishga imkon beradi. Maqsadli blokda kollaborativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirishni metodik qo‘llab-quvvatlash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Keyingi metodologik blokda tadqiqot doirasidagi vazifalar, ya’ni maqsadlarni aniqlash, motivlashtirish, o‘quv materialini strukturalashtirish, refleksiya, kollaboratsiya, pedagogik texnologiyadan oqilona foydalanish aks ettirilgan. Ushbu vazifalarning ijrosi mazkur modelni metodologik blokning 2-qismi, ya’ni fanlar (tadqiqot doirasidagi tanlangan fanlar “Ijtimoiy pedagogika”, “Oila pedagogikasi” va “Hamkorlik pedagogikasi”), kollaborativ yondashuv asosidagi metodlar: “Axborot almashish”, “Qiziqarli rollar”, “Hamkorlikda muammolarni hal qilish”, “Hamkorlikda o‘zaro o‘rganish”, “Liderlikni yuzaga chiqarish”, “Raqobatni tashkillashtirish”, “Dual dars”, “Dialog darsi”, “Liberalashtirilgan mashg‘ulot”, “Innovatsiyalar mashg‘uloti”; maqsad qilingan intensiyalar: ta’limiy, tarbiyaviy, motivatsion, muloqot, diagnostik, innovatsion, ijodiy va tavsiya qilingan metodlarni refleksiya qilish (quyi, o‘rta va yuqori) kabi metodologik asoslar orqali belgilangan. Tashkiliy-faoliyat hamda metodologik bloklarida belgilangan vazifa va asoslar birlashtirilgan. Pedagogik intensiyalarning yuqori rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi fanlararo integrativ metodlar mavzulashtirilgan va o‘quv jarayoniga tatbiq etish ko‘rsatib o‘tilgan. Keyingi tahliliy natijaviy blokda esa yuqoridagi tashkiliy faoliyat natijasidagi samaradorlik va uning natijasi tahlil qilingan.

Modelning tarkibiy komponentlari, ya’ni maqsadli, metodologik, tashkiliy faoliyat va tahliliy natijaviy bloklaridagi vazifa va amallar qat’iy izchillikdagi bir-biriga bog‘liq muayyan tizim ko‘rinishida takomillashtirildi. Mazkur jihat tadqiqot doirasida takomillashtirilgan modelning tadqiqot faoliyati davomida koordinatsion ko‘rsatkichli boshqaruvining tizimlashuviga olib keladi.



1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasining tarkibiy tuzilmasi va o'quv jarayoniga singdirilganligi uning mavjud metodikalardan farqini ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantiruvchi ushbu model asosida jarayonni to'g'ri tashkil qilish, mashg'ulot samaradorligini oshirish imkoni mavjud.

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish maqsadida tadqiqot ishi doirasida adabiyotlar tahlili va ularni umumlashtirgan holda bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida o'qitishning interfaol metodlarini jamlab, bu metodik majmuani o'quv faoliyatiga singdirish maqsad qilib olingan. Tadqiqot doirasidagi metodik majmuani mamlakatimiz oliy ta'lim muassalarining bo'lajak pedagoglarni o'quv faoliyatini tashkillashtirishda ularning fundamental pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi "Ijtimoiy pedagogika", "Oila pedagogikasi" va "Hamkorlik pedagogikasi" fanlariga integratsiya qilish, fan dasturi doirasidagi mavzularga nisbatan ularning xususiyati va ta'sir doirasiga ko'ra mavzulashtirish mumkin. Uning natijasida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalari rivojlantiriladi.

Kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirish doirasida qo'llaniladigan metodikalarning birlashuvi hamda bu metodik tavsiyalarning kollaborativ yondashuv asosida o'qitilishi, boshqacha qilib aytganda, metodikalarning kollaborativ yondashuvga nisbatan integratsiyasi biz maqsad qilgan pedagogik intensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks ta'sirni namoyon qiladi.

"Ijtimoiy pedagogika", "Oila pedagogikasi" va "Hamkorlik pedagogikasi" fanlarining mavzulari mazmuni, mohiyati, tarixi, huquqiy asoslari, vazifalari, shakllari, vositalari va pedagogik psixologik shart-sharoitlarini kollaborativ o'qitish asosida mavzulashtirilgan metodlari asosida pedagogik intensiyalarni rivojlantiruvchi jihatlarini inobatga olgan holda tavsiya etiladigan kollaborativ yondashuv asosidagi metodik tavsiyalar, metodik va pedagogik jihatdan fan doirasiga tadqiqotning yondashuv uslubi va fanning xususiyati bir-biriga nisbatan mutanosiblik kasb etadi.

Metodlar Fanlar	Axborot almashish	Qiziqarli rollar	Hamkorlikda muammolarni hal qilish	Hamkorlikda o'zaro o'rganish	Liderlik	Raqobat	Dual	Dialogik	Liberal	Innovatsiyalar
Ijtimoiy pedagogika	Xorijda va O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikani rivojlanish tarixi	Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar; Deviant xulq	O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limotida ijtimoiy-pedagogik g'oyalari.	Ijtimoiy pedagogika tamoyillari; pedagogning kasbiy faoliyati	Fanning kategoriyalari va mexanizmlari Mahallalar – o'z-o'zini boshqarish organi	Ijtimoiy pedagogikaning tarixiy, ijtimoiy-huquqiy shart sharoitlari.	Ijtimoiylashuv omillari va vositalari; Bolaning sotsiumda rivojlanishi	Ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida. Ijtimoiylashuv jarayoni.	Ijtimoiy pedagogikaga ehtiyoj va jamiyat rivojining shartlari.	Ijtimoiy pedagogikada "meyor" tushunchasi. Meyordan og'ishish tiplari.
Oila pedagogikasi	Chet elda oila pedagogikasi fanining rivojlanishi tarixidan	Oila va uning vazifalari; Oilaning turlari;	O'zbekistonda oila pedagogikasi fanining rivojlanishi tarixi	Oila tarbiyasi metod, shakl va vositalari	Oila tarbiyasi mazmuni va mohiyati	Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlari	Oila pedagogikasi - fan sifatida	Oila pedagogikasi-ning ijtimoiy-iqtisodiy, meyoriy huquqiy asoslari	Oilada muloqotning pedagogikpsixologik shart-sharoitlari	Guruh rahbarining o'quvchilarni ota-onalari bilan olib boradigan ishlari, shakl va metodlari
Hamkorlik pedagogikasi	Xorijda hamkorlik pedagogikasi; hamkorlikda pedagogik intensiya	Pedagogik hamkorlik - talaba faoliyatini faollashtirish omili	Hamkorlik pedagogikasi o'quv faoliyatidagi metodik asoslari	Hamkorlik pedagogikasi tamoyillari va pedagogik qonuniyatlari	Hamkorlikdagi pedagogik faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish va samarali hamkorlik texnikasi	Hamkorlik pedagogikasi asosida o'quv faoliyatini loyihalash texnologiyasi	Fanga kirish, uning maqsadi, vazifalari va pedagogik asoslari.	Hamkorlikdagi pedagogik faoliyatni shakllantirishga differensial yondashuv.	Talabalarda hamkorlikdagi o'quv faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari	Hamkorlik pedagogikasi ta'lim texnologiyalari ni tadbiq etish.
Rivojlanuvchi intensional	Muloqot, Innovatsion, Ijodiy	Motivatsion, Innovatsion, Ijodiy	Innovatsion, Muloqot, Diagnostik	Ta'limiy, Innovatsion, Muloqot, Ijodiy	Motivatsion, Diagnostik, Innovatsion	Ta'limiy, Diagnostik, Ijodiy	Ta'limiy, Tarbiyaviy, Muloqot,	Tarbiyaviy, Muloqot, Ijodiy	Ta'limiy, Motivatsion, Muloqot	Ta'limiy Innovatsion, Ijodiy


2-rasm. Pedagogik intensionalarga yuqori rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi fanlararo integrativ metodikalarning qo'llanishi

